



AUTIZM SPEKTRLI BOLALARDA NUTQ SHAKLLANISHI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim va maxsus
pedagogika fakulteti logopediya yo'nalishi
201- guruh talabasi Turdaliyeva Gulira'no*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15237182>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda neyropsixologik holatlar haqida, shu bilan birga xulq-atvor va nutq rivojlanishidagi o'ziga xos o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan. Autizm spektrli bolalarda nutq rivojlanishida kechikish yoki o'ziga xos nutq buzilish holatlari bo'lishi mumkin.

Kalit so'z: Nutq shakllanishi, exolaliya, logopediya, neyropsixologiya, autizm spektr buzilishi, ijtimoiy muloqot, til rivojlanish buzilishi.

Autizm spektrli bu odatda ijtimoiy munosabatlar va muloqotdagi qiyinchiliklar, takrorlanuvchi xatti-harakatlar, cheklangan qiziqishlar va hissiy stimullarga g'ayrioddiy javoblar bilan tavsiflangan neyrorivojlanish xastaliklari hisoblanadi. Autizm spektrli bolalar belgilari asosan, buyumlarni takroriy ravishda ketma-ket joylashtirish yoki ustma ust terishning autizmda namoyon bo'lishi ijtimoiy o'zaro ta'sir, og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotdagi farqlar, kuchli qiziqishlar va takrorlanuvchi xatti-harakatlarning mavjudligi kabi belgilari bo'lishi mumkin.

Autizm spektr buzilishi o'zaro ta'sir va ijtimoiy muloqotni boshlash va qo'llab-quvvatlash qobiliyatining doimiy kamchiliklari, shuningdek, bir qator cheklangan, takrorlanadigan va moslashuvchan bo'lmagan xatti-harakatlar, qiziqishlar yoki faoliyat shakllari, shaxs tabiati uchun haddan tashqari noodatiy va atipik hodisalar bilan tavsiflanadi. Autizm spektrning boshlanishi ilk rivojlanish davrida, odatda erta bolalikda sodir bo'ladi, ammo ijtimoiy talablar cheklangan imkoniyatlardan oshmaguncha mavjud alomatlar to'liq namoyon bo'lmasligi ham mumkin. Autizm spektr buzilishiga ega bolalarda nutq rivojlanishi individual ravishda farqlanadi. Aytib o'tganimizdek, ba'zi bolalar umuman gapirmasligi mumkin, boshqalarni esa exolaliya (eshitilgan so'zlarni takrorlash) orqali fikrini bildirish holatlari kuzatiladi. Autizm spektr rivojlanishining 2 ta mumkin bo'lgan yo'nalishi mavjud. Rivojlanishning bir yo'nalishi tabiatan bosqichma-bosqich bo'lib, unda ota-onalar hayotining dastlabki 2 yilidagi rivojlanish tashvishlari haqidagi xabar berishadi va tashxis 3-4 yoshda qo'yilishi mumkin. Bu yo'nalishdagi autizm spektrning dastlabki belgilaridan ba'zilar yuzlarga e'tiborning pasayishi, ismi bilan chaqirilganda aniq javob bermaslik, ko'rsatish yoki ishora qilish orqali qiziqishlarni ko'rsatmaslik va kechikuvchi xayoliy o'yinlar o'ynash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Rivojlanishning 2-yo'nalishi regressiya boshlanishidan yoki ko'nikmalarini yo'qotishdan oldin normal yoki normal normalga yaqin rivojlanish bilan tavsiflanadi. Regressiv autizmda bola odatiy rivojlanayotgandek ko'rinsa-da, lekin nutq va ijtimoiy ko'nikmalar yo'qotila boshlaydi, bu odatda 15 dan 30 oygacha bo'lgan davrda yuzaga keladi va bu bolalarga keyinchalik autizm spektrli tashxisi qo'yiladi. Regressiyadan so'ng bola autistik nevrologik rivojlanishning standart namunasi bo'yicha rivojlanadi. Regressiv autizm atamasi tipik nevrologik rivojlanishning teskarisidir. Bu aslida, umuman nevrologiyaning emas, balki faqat shakllanib ulgurgan qobiliyatlarning orqaga qaytishidir.

Autistik nevrologik rivojlanish regressiya bilan bog'liq emasligi odatiy holdir, yoshga mos keladigan autizm belgilari bola tug'ilishidanoq aniq bo'ladi. Regressiv autizmning to'satdan yuzaga chiqishi ota-onalarni hayratda qoldiradi va bezovta qiladi, ular ko'pincha bu holatni eshitish qobiliyatining yo'qotilishi bilan atashtirishadi. Regressiyani atrof muhitning stress omillariga bog'lash tashxisni kechiktirishga olib kelishi mumkin. Autizm spektr ko'plab xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bunga ijtimoiy va o'rganish ko'nikmalarining sekin rivojlanishidan tortib, boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatishdagi qiyinchiliklargacha misol keltirish mumkin. Kishilarsa tashvish



yoki ruhiy tushkunlik tufayli aloqalarni oʻrnatishda muammolar yuzaga keladi, bu holatni autistic odamlar koʻproq boshdan kechirishadi va natijada oʻzlarini izolatsiya yaʼni oʻzlarini jamiyatda saqlash holati yuzaga keladi.

Autizm - keng maʼnoda, odatda, aloqaga kirishmaslik, “yovvoyilik”, aloqadan oʻzini olib qochish, oʻzining dunyosida yashash maʼnosini anglatadi. Aloqaga kirishishdan qochish turli shaklda va sabablarga koʻra namoyon boiishi mumkin. Baʼzan bu bolaning xarakteri kuchsiz boisa, boshqa hollarda uning koʻrish yoki eshitish qobiliyatining yetarlicha boimasligi, aqliy rivojlanishdan orqada qolish, nutq rivojlanishining orqada qolishi (uning kommunikativ, yaʼni aloqa qilish funksiyasining), nevroitik buzilishlar yoki ogʻir gospitalizm (bolaning ilk yoshlarida ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi) oqibatida kelib chiqadi. Kommunikatsiya (aloqa) qilishning buzilishlari koʻp hollarida asosiy yetishmovchilik: aloqa qilishga boigan ehtiyojning sustligi, maiumotlarni idrok etish va vaziyatni tushunishning qiyinligi, ilk yoshlarda aloqaning surunkali yetishmasligi, nutqdan foydalana olmaslik oqibati boiadi. Autik bolaning muammolarini koʻrib chiqishda shu xulosaga kelish mumkin-ki, uning rehabilitatsiyasida asos - bolaning butun hayotini davolashni tashkil etishdir. Bunda asosiy ish uning yaqinlariga - oilasi yoki uning oʻmini bosuvchilarga yuklanadi, ularga esa mutaxassislar jamoasi yordam berishi lozim. Autik bolalar bilan olib boriladigan ishlar yillar mobayniga choʻzilishini doimo yodda tutish lozim.

Psixologik ishning asosiy qismini bola bilan olib boriladigan mashgʻulotlar tashkil etadi. Bunday mashgʻulotlarda psixolog autik bolaga odamlar bilan aloqa qilishning ancha faol va murakkab sharoitlarini yaratishi, unda dunyoning anglangan, demak toʻliq va bogʻlangan shaklini shakllantirishi kerak. Mashgʻulotlarda egallangan yangi tajriba asta-sekin mustahkamlanadi. Baʼzi maiumotlarning koʻrsatishicha, autik bolalarda koʻpgina hollarda aloqa qilishning buzilishi mutizm (soʻz va hatto jumlamaming tasodifan aytilish holatlari saqlangan holdagi nutqdan aloqa qilish uchun maqsadga yoʻnaltirilgan holda foydalanishning yoʻqligi) koʻrinishida namoyon boiadi. Nutqning turgʻun shakllari rivojlangan vaqtda ham autik bolalar ulami aloqa qilishda qoilyamaydilar. Autik bola uchun exolaliya (eshitgan soʻz yoki jumlamami darrov yoki keyinchalik oʻrinsiz takrorlash), uzoq vaqtgacha shaxs olmoshlarini notoʻgʻri qoilyash: bola oʻzini “sen”, “u”, deb nomlashi, oʻzining ismini aytishi, oʻzining istaklarini shaxssiz koʻrsatmalar bilan (men chanqadim yoki suv ichaman oʻmiga — “suv berish”, qomim ornidan oʻrniga - “ovqatlanish”) xosdir.

Autik bola hatto anchagina yaxshi rivojlangan, lugʻati boy, yoyilgan jumlati “kattalar” nutqiga egaboʻlsa-da, u ham shtampli, “toʻtiqushnikiga oʻxshash”, “fonografik” (yozib olingan) xarakterga ega boʻladi. Autik bolaning oʻzi savol bermaydi va unga qaratib aytilgan murojaatga javob qilymaydi, yaʼni nutqiy oʻzaro harakatdan qochadi. Shuningdek, u imo-ishora, yuz ifodasidan foydalanmaydi.

Nutqining surʼati, ritmi, ohangi, intonatsiyasi oʻziga xos boʻladi. Autizm holatida sensor integratsiyasiga asoslangan terapiyaning asosiy maqsadi sezgilaming modulyatsiyasi va ulami samarali tarzda qabul qilish maqsadida sensor axborotlami qayta ishlashni yaxshilash va hulq - atvorni tashkillashtirish vositasi sifatida oddiy adaptiv javoblami shakllantirishga yordam berishdan iboratdir. Agarda terapiya maʼlum darajada samarali boʻlsa, u autizm bilan kasallangan bolaning hayotini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bunday bolalar bilan ishlash davomida ulaming sensor impulslami qayta ishlashi haqidagi bilimlarni toʻplashimiz va ularga yordam qoini choʻzishimiz uchun kerak boʻladigan vosita va usullami topishimiz darkor. Metodikalarni qoʻllash davomida ulaming yuqori va quyi sezuvchanlik darajalarini ham diagnostika qilish muhim hisoblanadi. Bu borada har bir bolaga individual yondashish hamda ularda namoyon bolgan sensor dezintegratsiyaning darajasiga qarab maqsadga yoʻnaltirilgan korreksion dasturlami ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish ushbu muammoni sezilarli darajada bartaraf etishga yoʻl ochib beradi.

Nutq shakllanishiga yordam berish usullari Autizm spektrli bolalarda nutqni rivojlantirishda turli metodlar va yondashuvlar qoʻllaniladi masalan;

1. Logopedik terapiya



– Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

– Suhbatni boshlash va davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Vizual yordamlar

– Rrasmlar va yozuvlar orqali muloqotni qo'llab-quvvatlash.

– Harakat va imo-ishoralalar yordamida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish.

3. ABA terapiya

– Ijobiy mustahkamlash orqali bolani nutq so'zlashga rag'batlantirish.

– Xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlash usullari.

4. Sensor integratsiya terapiyasi

– Sensor sezgirlikni kamaytirish va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

– Musiqa terapiyasi, harakatli o'yinlar va taktil stimulyatsiya usullaridan foydalanish.

5. Oilaviy qo'llab-quvvatlash

– Ota-onalar va yaqin qarindoshlar bolaning nutq rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

– Uy sharoitida nutqiy mashqlarni bajarish va bola bilan ko'proq muloqot qilish.

Xulosa qilib aytganda Autizm spektrli bolalarda nutq rivojlanishi individual xususiyatlarga ega bo'lib, har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlariga mos yondashuvni talab qiladi. Erta tashxis va logopedik, pedagogik hamda terapevtik yondashuvlar orqali bolalarning muloqot qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin bo'ladi. Eng muhimi, aytib o'tganimizdek ko'proq sabr va vaqt talab qiladi va o'quvchilarga yaxshi muomilada bo'lish o'zlarini qiziqishlariga qarab mashg'ulotlarni olib borish muhim hisoblanad.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.M.U.Xamidova "Maxsus pedagogika" Toshkent-2018

2.G.S.Saidova "Defektalogiya asoslari"

3. M.M.Muhammedova "Maxsus pedagogika"